

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

LIRIK PSIXOLOGIZMNING IFODA SHAKLLARI

Usmonov Sherzod Panjiyevich,
*Qarshi davlat universiteti Yangi o‘zbek
adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasida
mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotatsiya:** Adabiyotshunoslikdagi psixologizm muammosiga bag‘ishlangan ishlarni bir-biriga chog‘ishtirish: nazariy yondashuvlarda yakdillik yo‘qligini; asarlardagi individual-mualliflik psixologizmi masalalari yuzasidan ishlarning serobligini; XIX adabiy psixologizmining eng ko‘p ishlanganligini, XX asr lirik psixologizmi va uning jahon adabiyotidagi dinamikasiga bag‘ishlangan qiyosiy-tarixiy ishlarning mavjud emasligini ko‘rsatdi.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy-estetik, individual sub‘ekt, lirik psixologizm, falsafiy- psixologik mohiyat.*

***Аннотация:** Сравнение работ, посвященных проблеме психологизма в литературоведении: отсутствие единого мнения в теоретических подходах; отсутствие проработки вопросов индивидуально-авторской психологии в произведениях; Он показал, что литературный психологизм 19 века является наиболее изученным, а также недостаток сравнительно-исторических работ, посвященных лирическому психологизму 20 века и его динамике в мировой литературе.*

***Ключевые слова:** художественно-эстетический, индивидуальный субъект, лирический психологизм, философско-психологическая сущность.*

***Annotation:** Comparing the works devoted to the problem of psychologism in literary studies: lack of consensus in theoretical approaches; the lack of work on the issues of individual-authorship psychology in the works; He showed that the literary psychologism of the 19th century was the most studied, and the lack of comparative-historical works devoted to the lyrical psychologism of the 20th century and its dynamics in world literature.*

***Key words:** artistic-aesthetic, individual subject, lyrical psychologism, philosophical-psychological essence.*

Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatli chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Chuqurroq diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotganligi ko‘zga tashlanadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. To‘g‘ri, har xil tur va janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari mutlaqo o‘zgarib ketmaydi, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi, usullar tizimi ma’lum darajada o‘zgarishi aniq.

So‘zning har qanday badiiylashtirilgan shakli, u og‘zaki yoki yozma bo‘lishidan qat’i nazar, inson ma’naviy-psixologik olamiga ta’sir o‘tkazishi jihatidan muhimdir. Badiiy asar tayyor holga kelgan taqdirda ham o‘z kitobxonini topmaguniga qadar, o‘zining yetakchi estetik vazifasini bajara olmaydi. Faqat badiiy asarning o‘quvchi bilan “muloqoti” boshlangan nuqtada u jonlanadi, retseptiv

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mohiyat kasb etadi. Xuddi shu nuqtada badiiy psixologizm mexanizmi ishga tushadi. So‘zlovchi yoki yozuvchi badiiy bayoni, tasvir usuli, psixologik ifodalash uslubi jonlanadi. So, z ilmining yetakchi namoyondalari asarlarida qayd etilishicha: «obrazli qilib aytilgan so‘z kishi ruhini o‘ziga bo‘ysundiradigan bir holat kasb etadi. Bu shundayki, ma’lum bir ishlar kishiga ko‘rinmasdan, ular haqida biror fikr yuritilmasidan va uni e’tirof etilmasdan turib, ular kishiga xush keladi, ba’zilaridan esa kishi o‘zini tiyadi. Bir so‘z bilan aytganda, bunday narsadan odam bezovtalanadi, lekin bu bezovtalik ongli ravishda bo‘lmay, balki nafsoniy - psixologik ta’sirlanganlik natijasida bo‘ladi”.

Lirik psixologizm aloqa-aralshuv hodisasi bo‘lib, shu ikki jarayon o‘rtasida sodir bo‘ladi. Professor Abdurauf Fitrat bu jarayonni quyidagi jumlada qisqa va aniq tarzda shunday ifodalaydi: “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqunlarni yaratmoqdir”.

Lirik psixologizm uch asosiy yo‘nalishda rivojlanuvchi nazariy masalalarning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, bu masalalarga e’tibor badiiy adabiyotda faollashdi. Buning bir qancha ijtimoiy, badiiy-falsafiy hamda psixologik omillari mavjud:

1) ijtimoiy hayotimizda ro‘y bergan qator o‘zgarishlar, mustaqil o‘zbek jamiyatining shakllanishi, inson omiliga, avvalgidek ulkan mexanizmning bitta vinti deb emas, balki individual sub’ekt, shaxs sifatida qarash kuchaydi;

2) badiiy-estetik qarashlarimizda yangi estetik idealni shakllantirishga intilish, dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

3) Uchinchidan, globallashuv jarayonini boshdan kechirayotgan inson omiliga munosabat masalalari, jahon adabiyotida bo‘lgani kabi, o‘zbek nasrida ham qator o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, dissertatsiyamizning o‘zak muammosi sifatida tadqiq etilayotgan lirik psixologizm masalasi madaniy-tarixiy, falsafiy- psixologik, badiiy-estetik mohiyat kasb etishi bilan birga, muhim nazariy tushuncha sifatida zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi takomili uchun xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek adabiyoti materiallari asosida ayni badiiy hodisaga xos nazariy kriteriylarni umumlashtirish, yangi qirralarini aniqlash zaruratini ko‘rsatadi. Zamonaviy adabiyotshunoslik ilmidagi “lirik psixologizm” tushunchasi bugungi kunda semantik jihatdan yetarlicha aniq emasdek taassurot uyg‘otadi. Tadqiqotchilar umumiy va amaliy xarakterdagi ishlarida bu termini takror-batakror qo‘llaydilar. Ammo unga xos kriteriylarni belgilashda fikrlar mazmuni ba’zan qarama-qarshi kelib qolgan holatlar ham uchrab turadi. Chunki lirik psixologizm adabiyotshunoslar diqqat markazida turgan nisbatan murakkab hodisalardan biri hisoblanadi, uning o‘ziga xos

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

xususiyatlari va ko‘p jihatlilik, bir tomondan, muammoni o‘rganish jarayonida ko‘pgina fanlarga oid bilimlarni talab etishida (psixologiya, falsafa, estetika, adabiyotshunoslik fanlari sarhadlari qamrovida) namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan – adabiyotshunoslikning barcha asosiy muammolari bilan bevosita aloqadorligida ko‘rinadi. Mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy ijoddagi psixologizm masalasi ko‘p marta ko‘tarilgan. Mazkur muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarning ko‘pligi va uni atroflicha o‘rganilishi mumkinligi jihatidan (nazariy, adabiy- tarixiy, analitik nuqtai nazarlardan) keng ko‘lamli bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda quyidagilarning yetishmasligi yaqqol sezilib qolmoqda:

- lirik psixologizmga xos nazariy kriteriyalar to‘la-to‘kis aniqlanmagan;

- lirik psixologizm prinsiplarining o‘zgarib borishi, har bir davr, adabiy muhit, individual ijodkor asarlarida uning nisbatan farqli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lish tabiati e‘tibordan chetda qolib keladi;

-terminologik aniqlik yetishmaydi. Turli tadqiqotlarda bu terminning xilma-xil shakl o‘zgarishlariga uchrashi kuzatiladi;

-metodologik jihatdan badiiy psixologizm hodisasiga nisbatan turli tahlil metodlarining umumlashtirilgan kompleks talqin shakli mavjud deya olmaymiz.

Lirik psixologizmning XIX va XX asrdagi jahon nasri namunalari tadqiqi, ba’zi hollarda ijtimoiy tuzumlar, inqilobiy qarashlar, konservativ ko‘rsatmalar asosida shakllangan nazariy kriteriyalari zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalari ham muayyan darajada o‘z aksini topgan. Xususan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Oybek romanlarida psixologik tasvirning nisbatan an’anaviy - dialogik zidlov, chog‘ishtirma, monologik tahlil shakllari, Abdulla Qahhorda adabiy qahramonning botin kolliziyasi, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirovlar nasrida real tarixiy vaziyat va inson botinining mushtarak badiiy tahlili, Murod Muhammad Do‘st, Erkin A‘zam va Ahmad A‘zamlarda shaxs psixologiyasining difonik va polifonik tasvirlari, Nazar Eshonqul, Isajon Sultonlarda esa metaforizatsiyalashtirilgan psixologik tasvir tamoyillari ko‘zga tashlanadi. Bularning barchasi zamonaviy o‘zbek nasrida badiiy psixologizm tamoyillarining o‘zgarib, rivojlanib borganini ko‘rsatishi bilan bir qatorda, o‘z adabiy muhiti doirasida badiiy psixologizm prinsiplariga sezilarli yangiliklar qo‘shganidan dalolat beradi.

She‘riyatda tuyg‘u, idrok va ifoda so‘z andozasiga sig‘maydi. Ma‘no qirrasitushuncha va g‘oyani birlashtiradigan rishta, integrativ munosabat izchil semantik maydonni hosil qiladi. Lug‘aviy konstruksiya tashbeh va obrazga tenglashuvi tafakkur mexanizmini shakllantiradi. Muqoyasa asosida so‘z ma‘no ko‘chish usuli va yondosh poetik tafakkur tipi sifatida metafora badiiy nutqqa mansub hodisa hisoblanadi. To‘g‘rirog‘i, tushuncha estetik muddaoga yo‘naltirilishi

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

uning ma’no- mohiyatini belgilaydi. Ifoda malakasi she’r ruhiyatida tasavvur miqyoslarini kengaytirish barobarida rivoya texnikasini takomillashtiradi. Qayta kashf qilingan imkoniyat adabiy talqin jozibasini ta’minlaydi. Til materialidan estetik baholashmezoniga ko’chadigan istiloh inson ongosti qatlamlarini harakatga keltiradi.

Ijodkorlar adabiy talqinida metafora ko’ngil inja-sir asrorini tahlil qilish vositasidir. Shoir Nodira Afoqova “Kuzning so’nggi tuni” she’rida tematik parallelizm majoziy manzarani uyushtiradi. Bir tun yoki faslning tugashi bilan boshqa bir kunning yohud faslning tug’ilishi, yaralishi, davom etishi va o’rtasida tasavvur bog’lami mavjud, mushohada assosiatsiyasi falsafiy umumlashmani tadqiq sahniga chiqaradi.

*Bulutlarga bandidir osmon...
Tutmoq bo’lib kuzning baridan
Yuguradi shamollar nolon
Soktarening ko’chalarida.
Boshlanadi uzun bir ertak
Derazaning ko’zlari yaxlab
Daryolarning uzun tilini
Shut tun kimdir qo’yadi bog’lab.
Yap-yalang’och daraxtlar horg’in
Ko’kka boqib tilin tishlaydi.
Kelinchakday saharga yaqin
Ko’ylagini qiya boshlaydi...*

Hissiy idrokda mantiqan bir-biriga ulanadigan tafsilotlar lirik qahramon armonini tavsiflaydi. Parda ortida namoyon ma’shuqa siyrati ushalmas orzuni tasdiqlaydi. Fasllar nisbati (bahor, yoz, kuz) ruhiy holat o’zgaruvlarini jilolantiradi. Tarang falsafiy mushohada tug’yonni kuchaytirishga xizmat qiladi. Joriy holatda so’z manzara tasviri va kechinma-kayfiyat-holatni bir-biriga muvofiqlashtiradi. Zebo Mirzoning “Ortimda” she’rida keltirilga tasvirga e’tibor beraylik:

*Zulm zanjirlari sanchilib bo’lgan,
Sevgi chechaklari yanchilib bo’lgan.
Haqorat to’kilgan
Haq dargohida
Haqir jandalari titilib bo’lgan.
Bir isyon qonlarda yeditilib bo’lgan...*

Inson kayfiyati va tabiat tuyg’ulararo aloqa metaforik birikuv yaxlitligini ta’minlaydi. Umuman, azal-azaldan so’z estetik qiymatini baholash pirovard maqsadnibelgilaydi. Ayniqsa, ijod falsafasida ramz va majoz vositasida badiiy nutqqa bezak berish odat tusiga aylangan. Unda tasavvur va ma’no munosabatga kirishadi. Ifoda tadrijini poetik g’oya hamda adabiy talqinga tenglashtiradigan tushuncha –

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

metafora bir paytning o‘zida ham estetik idrok shakli, ham tasvir vositasi vazifasini o‘taydi. Aslida "so‘zning ko‘chma ma‘noni, undagi badiiyat jarayonini yuzaga keltiruvchi majoz hamda uning rang-barang turlari: metafora, metonimiya, tashbeh, ramz, kinoya, mubolag‘a, tashxis va hokazolardan iborat poetik san‘atlar jozibasini, bu unsurlarning asardagi o‘rni va roli, boshqa poetik vositalar bilan aloqadorligi, asarning badiiy-g‘oyaviy mohiyatini ochishdagi xususiyatlarini o‘rganish mohiyat e‘tibori bilan shoir mahoratidagi eng nozik qirralar va nuqtalarni aniqlash, o‘ziga xos murakkab bog‘lanishdagi badiiyat kompleksini ilmiy tahlil va tadqiq etish muayyan nazariy ehtiyoj hosil qiladi. Shoir qo‘llagan har bir original tashbeh poetik tafakkurni yangilaydi. Mushohadani badiiy teranlikka yo‘naltirish aynan majoz zimmasiga tushadi. Metaforada tasvir yig‘iqligi hamda ifoda yoyiqligi omuxtalashadi. Shu ma‘noda, til, nutq va tafakkur sathlarini birlashtiradigan tushuncha tuyg‘u hamda mushohadaaro falsafiy assosiatsiyani shakllantiradi. Unda sabab va oqibat o‘rtasidagi rishta badiiy miqyosda o‘zgachalanadi. Shakliy lakonizmdan poetik mantiqqa, poetik mantiqdan ma‘no siljishiga o‘tib turadigan atamada muqoyasa negizida voqelik estetik idrok etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Afoqova N. Bahorning boshlanishi. – Buxoro, 1997.
2. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san‘atlar. – Buxoro, 1995.
3. Afoqova N. Jadid she‘riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Afoqova N. Bizning era. – Toshkent: Ijod press, 2019.
5. Afoqova N. Yolg‘izning yori. – Toshkent: Muharrir, 2022.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
7. Zebo Mirzo. Ishq. - Toshkent: Akademyashr, 2011.